

TDSHU “Xorijiy tillarni o‘qitish ilmiy-metodik markazi”ning 2025-2026 o‘quv yili faoliyati yuzasidan yillik hisoboti

1. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 5-6-sentabr kunlari o‘tkazilgan “2025/2026-o‘quv yilida ta’lim sifatini oshirish borasida oliy maktab va kafedra professor-o‘qituvchilari oldida turgan dolzarb vazifalar” mavzusidagi o‘quv seminari o‘tkazildi.

2025/2026-o‘quv yilini samarali tashkil etish, ta’lim jarayonini xalqaro andozalar asosida takomillashtirish hamda professor-o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 5-6-sentabr kunlari kengaytirilgan o‘quv seminarlar tashkil etildi. Ushbu seminarlar O‘quv-uslubiy bo‘lim, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi hamda Xorijiy tillarni o‘qitish ilmiy-metodik markazi hamkorligida o‘tkazildi.

Seminarlar doirasida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ma’ruzalar va taqdimotlar tinglandi:

1. Xalqaro nufuzli TOP-300 talikka kirgan OTMlar dasturlari asosida o‘quv rejalarini takomillashtirish;
2. 2025/2026-o‘quv yilida professor-o‘qituvchilar oldida turgan dolzarb vazifalar;
3. Uzluksiz kasbiy rivojlanishning innovatsion yondashuvlari.

5-sentabr

Nodir Abdullayev, O‘quv ishlari hamda xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor

“Yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha kafedralar oldida turgan dolzarb masalalar”

Yangi o‘quv yilida kafedralarning tashkiliy va metodik ishlarga e’tibor qaratishi lozimligi ta’kidlandi.

Saodat Umarova, O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i

“Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarini TOP-300 talik reytingga kirgan xorijiy OTMlar dasturlari asosida takomillashtirish”

O‘quv dasturlarni xalqaro andozalarga moslashtirish mexanizmlari tushuntirildi.

Dilshoda Xodjimurotova, PhD, dots.

“TDSHUda xalqaro nufuzli reytinglardagi TOP-300 talikka kirgan OTMLar ta’lim dasturi asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlarini yaratish”

Universitet miqyosida ishlab chiqilayotgan yangi o‘quv dasturlari haqida ma’lumot berildi.



Aziza Nishanbayeva, PhD, katta o‘qituvchi

“Tinglab tushunish va o‘qib tushunish kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari va muammolari (CEFR imtihoni talablari misolida)”

Talabalarning til ko‘nikmalarini CEFR standartlari asosida rivojlantirish metodlari yoritildi.

Dilfuza Abbasova, PhD, dots.

“Koreys tili o‘qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlanishida innovatsion trening va malaka oshirish dasturlari”

Malaka oshirishning zamonaviy usullari va trening dasturlari samaradorligi ta’kidlandi.

Karima Rahmonberdiyeva, PhD, dots.

“Tajriba almashish orqali kasbiy mahoratni oshirish”

Xalqaro hamkorlik va tajriba almashuvning o‘qituvchi mahoratiga ijobiy ta’siri qayd etildi.



6-sentabr

Feruza Xasanova, PhD, dots.

“Xitoyshunoslik oliy maktabida xalqaro nufuzli reytinglardagi TOP-300 talikka kirgan OTMLar ta’lim dasturi asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari”

Xitoyshunoslik yo‘nalishida xalqaro tajribaga tayangan holda yangi dasturlar ishlab chiqilayotgani aytiladi.



Mehri Voxidova, PhD, dots.

“TDSHU Tashqi iqtisodiy faoliyat kafedrasida xalqaro nufuzli reytinglardagi TOP-300 talikka kirgan OTMLar ta’lim dasturi asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari”

Amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e’tibor qaratilganini ta’kidladi.



“Iqtisodiyot va menejment” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan “Top-300 talikka kirgan OTMLar ta’lim dasturi asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari”, xalqaro-lashtirish va boshqa dolzarb masalalarga bog‘ishlangan seminar tashkil etildi. Seminar davomida kafedra a’zolari yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik yuzasidan fikr almashib, o‘quv jarayoni bilan bog‘liq muhim jihatlar muhokama qilindi.

No	Ta'lim tashkiloti nomi	Davlat nomi	Reyting o'tkazuvchi tashkilot
1	Harvard University	United States	ARWU
2	Stanford University	United States	ARWU
3	Massachusetts Inst Tech (MIT)	United States	ARWU
4	University of Cambridge	United Kingdom	ARWU
5	University of California, Berkeley	United States	ARWU
6	University of Oxford	United Kingdom	ARWU
7	Princeton University	United States	ARWU
8	California Institute of Technology	United States	ARWU
9	Columbia University	United States	ARWU
10	University of Chicago	United States	ARWU
11	Yale University	United States	ARWU
12	Cornell University	United States	ARWU
13	Pain-Seley University	France	ARWU
14	University of Pennsylvania	United States	ARWU
15	University of California, Los Angeles	United States	ARWU
16	University College London	United Kingdom	ARWU
17	Rutgers University	United States	ARWU
18	University of California, San Diego	United States	ARWU
19	University of Washington	United States	ARWU
20	Univ California - San Francisco	United States	ARWU
21	ETH Zurich	Switzerland	ARWU
22	Hongkong University	China	ARWU
23	Washington University in St. Louis	United States	ARWU

Muhabbat Soliyeva, f.f.n., dots.

“Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabida xalqaro nufuzli reytinglardagi TOP-300 talikka kirgan OTMLar ta’lim dasturi asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari”

Talabalarda tarjima va media kompetensiyalarini oshirish, raqamli jurnalistika elementlarini kiritish zarurligi qayd etildi.



Nodira Nazarqulova, PhD, o‘qituvchi

“Xalqaro nufuzli reytinglardagi TOP-300 talikka kirgan yetakchi OTMLar tajribasi asosida ‘Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi’ kafedrasining o‘quv dasturlarini takomillashtirish”

Tarixiy fanlarda zamonaviy tadqiqot metodlari qo‘llanilishi zarurligi aytili.

Shoira Abdullayeva, Psixologiya fanlari doktori, prof.


“Pedagogika va psixologiya kafedrasida xalqaro nufuzli reytinglardagi TOP-300 talikka kirgan OTMLar ta’lim dasturi asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari”

Pedagogik va psixologik yondashuv asosida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari ko‘rsatildi.

Mo‘tabar Ismatullayeva, stajyor-o‘qituvchi

“CEFR imtihoni talablari asosida yozma va og‘zaki nutq kompetensiyalarini shakllantirish: metodlar, strategiyalar va amaliy misollar”

Talabalar nutq kompetensiyalarini rivojlantirish uchun kommunikativ usullarni qo‘llash bo‘yicha amaliy misollar keltirildi.



Saodat Saidakbarova, PhD, dots.

“G‘arb tillari kafedrasida xalqaro nufuzli reytinglardagi TOP-300 talikka kirgan OTMLar ta‘lim dasturi asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari”

Til o‘qitishda zamonaviy baholash tizimlari va multimediya texnologiyalaridan foydalanish zarurligi ta‘kidlandi.



Gulnora Mutalova, PhD, dots.

“Arabshunoslik oliy maktabida xalqaro nufuzli reytinglardagi TOP-300 talikka kirgan OTMLar ta‘lim dasturi asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari”

Arabshunoslikda matn tahlili va tarjima amaliyotlarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi.



Askariy Madraimov, PhD, dots.

“Xalqaro nufuzli reytinglardagi TOP-300 talikka kirgan yetakchi OTMLar tajribasi asosida ‘Markaziy Osiyo xalqlari tarixi’ kafedrasining o‘quv dasturlarini takomillashtirish”

Tarix fanlarini o‘qitishda manbashunoslikni kuchaytirish zarurligi qayd etildi.



Seminarlar yakunida quyidagi natijalar belgilab olindi:

1. Universitetda barcha kafedra va oliy maktablarda TOP-300 talikka kirgan OTMLar ta'lim dasturlariga muvofiq takomillashtirilgan o'quv dasturlariga mos ravishda yangi o'quv materiallarini ishlab chiqish.
2. Chet tillarini o'qitishda CEFR talablariga muvofiq ko'nikmalarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.
3. Professor-o'qituvchilar uchun innovatsion treninglar, malaka oshirish kurslari va tajriba almashuv dasturlarini joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim sharti ekanligi ta'kidlandi.
4. Har bir kafedra o'z yo'nalishida metodik va amaliy takliflar ishlab chiqdi hamda istiqbolli vazifalar belgilab olindi.

2. 2025-yil 27-noyabr kuni o'quv-seminar tashkil etildi.

Xorijiy tillarni o'qitish ilmiy-metodik markazi tomonidan universitet ilmiy izlanuvchilari, tayanch doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar va magistrantlar uchun seminar-trening tashkil etildi. Seminar xorijiy til ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy metodik yondashuvlardan foydalanish hamda akademik faoliyat samaradorligini oshirishga bag'ishlandi. Ma'ruzachilar sifatida TDSHU dotsenti Nargiza Ismatulayeva hamda O'zMU professori Jamila Djumabayeva ishtirok etdilar.

The poster is for a seminar titled 'SHARQSHUNOSLIK' (Oriental Studies) held at the 'TASHKENT DZHALIL NARGIZA INSTITUTE' (TDSHU). It features two speakers: Jamila Djumabayeva, an O'zMU English Language Department professor, and Nargiza Ismatulayeva, a TDSHU translation and linguistics expert. The poster lists two topics: 'ILMIY ISH VA ILMIY MAQOLALARNI SHAKLLANTIRISHDA SUN'IY INTELEKTNING ROLI' (The Role of Artificial Intelligence in Scientific Work and Scientific Article Structuring) and 'DISSERTATSIYA VA DISSERTATSIYA AVTOREFERATINI RASMIYLASHTIRISH QOIDALARI' (Rules for Officializing a Dissertation and its Abstract). The seminar is scheduled for November 27, 2025, at 10:00. The website is www.tsuos.uz and the location is Amir Temur k. 20-uy, B-bino, 300-xona.

Horijiy tillarni oqitish ilmiy metodik markaz tomonidan tashkilastirilayotgan seminar-trening

Ma'ruzachilar:

Jamila Djumabayeva
O'zMU Ingliz tilshunosligi kafedrası mudiri f.f.d, prof

Nargiza Ismatulayeva
TDSHU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti, PhD

ILMIY ISH VA ILMIY MAQOLALARNI SHAKLLANTIRISHDA SUN'IY INTELEKTNING ROLI'

DISSERTATSIYA VA DISSERTATSIYA AVTOREFERATINI RASMIYLASHTIRISH QOIDALARI

MAVZULARIDA SEMINAR-TRENING

27 noyabr
2025 yil
10:00

Vebsayt
www.tsuos.uz

Manzil
Amir Temur k. 20-uy,
B-bino, 300-xona

3. 2025-yil 17-dekabr kuni magistrlar uchun seminar-workshop o‘tkazildi.

Markaz direktori, PhD Karima Raxmanberdiyeva tomonidan Xorijiy til va adabiyot yo‘nalishi magistrleri hamda akademik litsey o‘qituvchilari uchun **“Teaching Listening”** mavzusida seminar-workshop o‘tkazildi. Unda tinglab tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari, autentik materiallardan foydalanish, raqamli platformalar va interfaol yondashuvlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar tashkil etildi.



4. 2026-yil fevral oyidan boshlab seminarlar tashkil etildi.

Markaz tomonidan haftaning har payshanba kunlari professor-o‘qituvchilar va akademik litsey pedagoglari uchun **“Zamonaviy til va fanlarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha malaka oshirish kursi”** doirasida muntazam o‘quv seminarlari yo‘lga qo‘yildi. Seminarlar TESOL, tilning to‘rtta ko‘nikmasi hamda zamonaviy interfaol metodlarni o‘qitish masalalariga bag‘ishlandi.

E‘LON

2026-yil fevral oyidan boshlab universitetimizda professor-o‘qituvchilar uchun zamonaviy til va fanlarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha malaka oshirish kursi tashkil etiladi. Kurs TESOL yondashuvi, to‘rtta til ko‘nikmasi (Listening, Speaking, Reading, Writing) hamda faol va interfaol metodlar asosida olib borilib:

ingliz tili,
sharq tillari va boshqa fanlar (jtimoiy fanlar)
o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

MASHG‘ULOTLAR: HAR HAFTANING
PAYSHANBA KUNI, SO‘AT 14:00
OTKAZILISH TILI: O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA
KURS YAKUNIDA: SERTIFIKAT BERILADI


Murojaat uchun:
+998 99-773-54-65





4.1. 2026-yil 19-fevralda o‘quv-seminar tashkil etildi.

Filologiya, Iqtisodiyot, Tarix va Falsafa yo‘nalishlari professor-o‘qituvchilari uchun interfaol o‘qitish metodlari bo‘yicha metodik seminar-trening tashkil etildi. Unda katta guruhlar bilan ishlash, talabalarni dars jarayoniga faol jalb etish hamda talaba markazli ta’limni tashkil etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.



4.2. Metodik markazda navbatdagi seminar tashkil etildi.

Seminar davomida interfaol metodlar, zamonaviy baholash usullari, kichik guruhlarda ishlash, refleksiya hamda talaba portfoliosini yuritishning amaliy jihatlari yoritildi. Mashg‘ulotlar pedagoglarning o‘zaro tajriba almashishi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.



4.3. TDSHU Akademik litseyi o‘qituvchilari malaka oshirdilar.

2026-yil fevral oyidan boshlab tashkil etilgan metodik kurslarda universitet qoshidagi akademik litsey o‘qituvchilari muntazam ishtirok etib, tilning to‘rtta ko‘nikmasi, TESOL hamda zamonaviy interfaol o‘qitish metodlari bo‘yicha malakalarini oshirdilar.



5. 2026-yil 12-mart kuni Alfraganus universitetida seminar-trening o‘tkazildi.

Alfraganus universiteti Xorijiy tillar kafedrasida PhD Karima Raxmanberdiyeva tomonidan **“Ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuvning samarali usullari”** mavzusida seminar-trening o‘tkazildi. Seminar davomida kommunikativ metodlar, juftlik va guruh ishlari, rolli o‘yinlar hamda raqamli vositalardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berildi.



6. 2026-yil 6-aprel kuni Akademik litseyda seminar-trening o‘tkazildi.

TDSHU qoshidagi akademik litsey o‘qituvchilari uchun **“Talabalarga ingliz tilini o‘qitishda mustaqil ta’limni tashkil etishning didaktik tizimi”** mavzusida seminar-trening tashkil etildi. Unda mustaqil ta’limni samarali tashkil etish, raqamli texnologiyalardan foydalanish va mustaqil ta’lim natijalarini baholashning zamonaviy yondashuvlari muhokama qilindi.

7. Malayziyada xalqaro malaka oshirish va hamkorlik tashrifi amalga oshirildi.

2026-yil 13–23-aprel kunlari DSHU **“Xorijiy tillarni o‘qitish ilmiy-metodik markazi”** direktori Karima Rahmonberdiyeva Malayziyaning INTI International University (QS 509)da tashkil etilgan 144 soatlik **“Teacher Training Program”** xalqaro malaka oshirish dasturida ishtirok etdi.



Dastur davomida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘quv natijalarini loyihalash (CLO), baholash tizimlari, inklyuziv ta’lim, sun’iy intellektdan ta’lim jarayonida foydalanish hamda pedagogik mahoratni rivojlantirish bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlar olindi. Malaka oshirish jarayonida xalqaro tajribalar o‘rganildi, microteaching mashg‘ulotlari o‘tkazildi hamda 144 soatlik xalqaro sertifikat qo‘lga kiritildi.



Shuningdek, tashrif doirasida University of Malaya (QS 58)da uchrashuvlar o‘tkazilib, akademik mobillik, qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, xalqaro konferensiyalar va ta’lim dasturlari bo‘yicha hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi. Erishilgan tajriba va ilg‘or pedagogik yondashuvlarni universitet professor-o‘qituvchilari o‘rtasida ommalashtirish maqsadida mahorat darslari tashkil etish rejalashtirilgan.



Markaz direktori:

K.S.Raxmanberdiyeva